

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RIA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH DAVLAT QO'MITASI
SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA
BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**“VETERINARIYA, CHORVACHILIK, BIOTEXNOLOGIYA,
IQTISODIYOT VA AGROIQTISODIYOT SOHALARIDAGI
DOLZARB MASALALAR YECHIMIGA INNOVATSION
YONDOSHUV” mavzusidagi**

**MAGISTRLAR VA IQTIDORLI TALABALARNING
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

T O ' P L A M I

2022-yil 27-28-may



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA
CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH DAVLAT QO‘MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

**“VETERINARIYA, CHORVACHILIK, BIOTEXNOLOGIYA,
IQTISODIYOT VA AGROIQTISODIYOT SOHALARIDAGI
DOLZARB MASALALAR YECHIMIGA INNOVATSION
YONDOSHUV” mavzusidagi**

**MAGISTRLAR VA IQTIDORLI TALABALARNING
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

T O‘ P L A M I

2022-YIL 27-28-MAY

Samarqand – 2022

UDK: 619.576.895.75.614.449.57.

QORAMOL BOVIKOLYOZINING TARQALISHI

Magistrantlar: Tolliev M.N., R.R.Rasulov.,
V.f.f.d. (PhD) Pulotov F.S.,
Ilmiy rahbar: v.f.d., Rasulov O'.I.

Annotatsiya: Ushbu maqolada qoramollarning bovikolyozining epizootologiyasi va kasallanish darajasi bo'yicha materiallar keltirilgan.

Kalit so'zlar: bovikolyoz, dinamika, intensiv, entomoz, endoparazit, eksten-siv, ektoparazit.

Kirish. Keyingi yillarda chorvachilikni dori-darmonlar, insektitsidlar va boshqa preparatlar bilan taminlanishini qiyinlashuvi, hayvonlar migratsiyasini oshishi, chorvachilik binolaridagi sanitariya holatining yomonlashuvi oqibatida qoramollar orasida entomozlarni ayniqsa, bovikolyozni keskin ko'payib borishi kuzatilmoqda. Bu esa chorva mollarning mahsuldorligini oshirish hamda aholini sifatli va ekologik toza chorva mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishdek dolzarb muammolarni amalga oshirishda jiddiy to'sqinlik qilib kelmoqda.

Mavzuning dolzarbligi. Bovikolyoz qoramollar orasida eng ko'p tarqalgan bo'lib, qoramollarda kuchli doimiy bezovtalikni chaqiradi, junlari tushadi, terisi dermatit va giperkeratozga uchraydi, ishtahasi susayadi, natijada yosh mollar o'sish va rivojlanishdan orqada qoladi, sog'in sigirlarning sut mahsuldorligi 30-50 foizgacha kamayadi, ba'zida umuman sut berishdan to'xtaydi. Bundan tashqari ular ko'pgina, ya'ni virusli, bakterial, zamburug'li va gelmintoz kasallik qo'zg'atuvchilarini tashuvchi hisoblanishadi, hattoki odamlar organizmiga ham o'tib yashashi qayd etilgan.

Tadqiqot maqsadi. Qoramollar bovikolyozining tarqalishini o'rganish, zamonaviy davolash usullarini ishlab chiqish.

Materiallar va metodlar. Terilgan hasharotlar turlari araxnoentomologiya laboratoriyasida qo'llanma va aniqlagich jadvalar («Opredelitel puxoedov (Mallophaga) domashnix jivotnykh»). Fauna SSSR. M.,-L.: izd. ANSSSR, 1940; Puxoedy. Chast 1. izd. ANSSSR, 1959, D.I.Blagoveshchenskiy) hamda boshqa maxsus adabiyotlar yordamida aniqlandi.


Tadqiqotlar natijalari va ularning tahlili. Tadqiqotlar Respublikaning turli hududlaridagi chorvachilik xo'jaliklari, shaxsiy va xususiy mollarda, «Zarafshon» daryosi to'qay va yaylovlari sharoitida aholiga qarashli jami 22 ta chorvachilik fermalaridagi va shaxsiy xonadonlardagi 7520 boshdan ortiq qoramollar parazitologik tekshirildi. Ushbu parazitologik tekshirishlar mobaynida qoramollar orasida *Bovicola bovis* – junxo'rlari eng ko'p tarqalganligi aniqlandi. Junxo'rlar butun yer yuzida qoramollar orasida eng ko'p tarqalgan doimiy ektoparazit bo'lib, Arthropoda tipiga, Insecta sinfiga, Mallophaga turkumiga, Trichodectidae oilasiga, *Bovicola* avlodiga, *Bovicola bovis* turiga mansub hasharotlar bo'lib qoramollarda bovikolyoz kasalligini keltirib chiqaradi.

Qoramollarning bovikolyozlari asosan sanitariya-gigiena, oziqlantirish va saqlash sharoitlari talabga javob bermagan xo'jaliklarda ko'proq uchrashi aniqlandi. Qoramollarni uzoq muddat transportirovka qilish, ya'ni bir davlatdan ikkinchi bir davlatga olib kelish (migratsiya) davomida, junlar, teri xom ashyosi va suv (cho'ltirilganda va suv ichish jarayonida) orqali ham jbovikolyozlarni tarqalishi kuzatildi.

Bovikolyozlar hayvonlarda yilning barcha mavsumlari davomida uchrab turishlari kuzatildi. Binodaga yuqori namlik va qulay harorat qish oylaridagi quyosh nurining yetishmovchiligi, hayvon junlarini uzun bo'lishi, ularni sifatsiz oziqlantirish va zich saqlanishlari bovikolyozlarning rivojlanishi va tez tarqalishi uchun qulay sharoit tug'dirishi aniqlandi. Yoz oylariga kelib hayvonlar yaylovga chiqqach quyosh nuri va quruqlik ta'sirida hayvonlarning kasallanishi kamayib ketishi kuzatildi.

Shunday qilib, bovikolyozlar qoramollar organizmida barcha mavsumlarda uchrashi, biroq invaziya ekstensivligi va intensivligi mavsumga nisbatan o'zgarib turishi, ya'ni dekabr-yanvar-

fevral-mart-aprel-may oylarida zararlanish maksimal darajada, iyun-iyul-avgust-sentabr oylarida minimal, oktabr-noyabr oylarida o'rtacha holatda bo'lishi kuzatildi. Ushbu ko'rsatkichlar umumlashtirilib qoramollarni bovikolyoz bilan mavsumiy tarqalishi aniqlandi. Bunda, bahor faslida qoramollarning o'rtacha - 96,6, qish oylarida - 70,7, yoz oylarida - 20,4 va kuz oylarida esa - 34,3 foizni tashkil etishi, yosh mollarning katta yoshdagi mollarga nisbatan kuchliroq kasallanishi hamda epizootiya shaklda kechishi aniqlandi (1-diagramma).



1-diagramma. Qoramollar bovikolyozining mavsumiy tarqalishi

Xulosa:

1. Qoramollar orasida uchraydigan entomozlardan bovikolyozlar eng ko'p tarqalgan bo'lib, hamma yoshdagi qoramollar kasallanadi, ayniqsa sanitariya holati yomon xo'jaliklarda salqin mavsumlarda qariyb 90-100 foizgacha qoramollarni qamrab oladi.

2. Bovikolyoz qoramollarda barcha mavsumlarda uchraydi. Biroq kasallanish mavsumga nisbatan o'zgarib turadi. Bunda dekabr-yanvar-fevral-mart-aprel-may oylarida zararlanish maksimal darajada, iyun-iyul-avgust-sentabr oylarida minimal, oktabr-noyabr oylarida o'rtacha holatda bo'ladi. Mavsumiy dinamika bo'yicha epizootiya qish va bahor oylarida maksimal, yoz oylarida minimal va kuz oylarida o'rtacha darajada kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Акбаев Р.М., Пуговкина Н.В. "Бовиколёз крупного рогатого скота в животноводческих хозяйствах Московской области" // Журнал "Ветеринария", Изд. "Логос Пресс" (Москва), - 2017.- № 1,- С. 10-13.
2. Благовещенский Д.И. «Определитель пухоедов (Маллопхага) домашних животных». Фауна СССР. М.,-Л.: изд. АН СССР, 1940.
3. Ятусевич А.И. и др. Руководство по ветеринарной паразитологии. Минск ИВС Минфина 2015 - 416 с.
4. Ruzimuradov A.R. Parazitizm biologicheskii. Optimizatsiya jivotnovodstva., "Zarafshon" DK nashriyoti, Samarqand, 2011.

UDK: 619: 636.3: 616.9

SALMONELLYOZ KASALLIGIDA QO'Y GO'SHTI VA ICHKI ORGANLARINI BIOLOGIK XAVSIZLIGINI O'RGANISH

Magistrant: Tuxtamishov N.S.,

Ilmiy rahbar: v.f.n., Mamatova Z.B.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navoiy viloyati Xatirchi tumanidagi mahallalarda va "Suvon Mirzo 2017" fermer xo'jaligida Salmonellyoz kasalligining uchrashi va ushbu hududda kasallikka gumonlanib olib kelingan namunalarda Salmonellyoz kasalligining biologik xavsizligi o'rganildi.

16. Normamatov R.Q., Hamzayeva M.Y., Qurbanov Sh.X. Qoramollarning jigar trematodozlari, qo'zg'atuvchilarining morfologik, biologik va epizootologik holati.....	200
17. O'rinboyev O.Y., Bazarov A.X. Mastit kasalligining etiologiyasi va diagnostikasi.....	203
18. Rahimberganov B.Sh., Taylakov T.I. Echiklar strongilyatozlarida albendazolni qo'llash.....	205
19. Raxmatov J.O., Kayumov Sh.A., Ibragimov F.B. Samarqand viloyati dehqon bozorlarida sotilayotgan asalning diastoz fermenti miqdorini solishtirish.....	208
20. Рузимов М.Р., Ачилов О.Э., Ибрагимов Ф.Б. Эхинококкоз билан зарланган қўй гўштини сифати ва ҳавфсизлиги.....	210
21. Sharipova L.Sh., Haqberdiyev P.S. Teylerioz kasalligini davolash va uni oldini olish chora-tadbirlari (<i>Adabiyotlar tahlili asosida</i>).....	212
22. Shirinboyeva D., Ruziyev Z.E. Yirik shoxli hayvonlar leykozining diagnostikasi va qarshi kurash choralari.....	216
23. Tolliev M.N., R.R.Rasulov., Pulotov F.S., Rasulov O'.I. Qoramol bovikolyozining tarqalishi.....	219
24. Tuxtamishov N.S., Mamatova Z.B. Salmonellyoz kasalligida qo'y go'shti va ichki organlarini biologik xavfsizligini o'rganish.....	220
25. Usmanov I.G'. Mayda shoxli hayvonlarning anoplotsefalyatozlari (<i>Adabiyotlar sharhi bo'yicha</i>).....	223
26. Xaydarov J.X., Ilyosov Z.I., Rasulov Sh.Sh., Rasulov O'.I. Dehqon bozorlarda sotilayotgan asalning soxtalashtirilganligini aniqlash usullari.....	226
27. Ibrohimov I., Rasulov Sh.Sh., Ibragimov F.M., Suyunov R.U., Rasulov O'.I. Sog'in sigirlarning sut mahsuldorligiga mikroiklim ko'rsatkichlarining ta'siri.....	228
28. Мукимов Ш.Ш., Салимова И.Ю. Ветеринарно-санитарная оценка молока при маститах коров.....	231
29. Орипова Ш., Суюнов Р.У., Салимова И.Ю. Определение остатков антибиотиков в молоке.....	234
30. Эшматова Н.И., Раббимова Ю.У., Каримов М.Г. Морфологические особенности органов пищеварения лошадей.....	236
31. Shaymardanov E.X., Akmalov Sh.A., Pulotov F.S., Rasulov O'.I. Diazinon – s preparatining xususiyatlari, qo'llash tamoyillari.....	239
32. Эшматова Н.И., Нишанов Э.Ж., Шамуратова З.Ж. Каримов М.Г. Морфология и особенности органов чувств лошадей.....	243
33. Hamzayeva M.Y., Normamatov R.Q., Qurbanov Sh.X. Qishloq xo'jalik hayvonlarining fassiolyozi, uning qo'zg'atuvchilari haqida ma'lumotlar.....	246
34. Hazratqulov I.A., Tayloqov T.I. Surxondaryo viloyati sharoitida echiklar fassiolyozining tarqalishi.....	249
35. Shomaxsudov A.Sh., Nurullayev A.A., Xoliqov A.A. Sipermetrin bilan zaxarlangan quyonlar go'sht mahsulotini veterinariya-sanitariya jihatidan baholash.....	252
36. Ne'matullayeva A.B., Murodov S.M. Go'shtdan tayyorlanadigan chuchvara mahsulotining sifat ko'rsatkichlari.....	254
37. Safarov M.B., Shapulatova Z.J. Urgut tumanida kuydirgi kasaligi bo'yicha epizootik holatni o'rganish natijalari.....	257
38. Sobirov M., Ibragimov F., Murodov S.M. Qoramollar piroplazmidozlarida sutni veterinariya-sanitariya ekspertiza usullarida tekshirish va baholash.....	260
39. Mamatkulova N.I., Yaxshiboyeva L.X., Toshqo'ziyev B.A. Fassiolyozni dunyo miqyosida o'rganilishi va epizotologik holati.....	263